

“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari / Mas’ul muharrir:
Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2025. ____-bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N. filologiya fanlari doktori, professor;
Normamatov S. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Xolmanova Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Mavlyanov S. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Xidraliyeva Z. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Turdaliyev A. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Alimardanov E. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Qodirov U. o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi 2025-yil 24-mayda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

MUNDARIJA

YALPI YIG'ILISH MA'RUZALARI

1	MAMATKULOVA OZKAN Mamura Nasrullayevna, Turkiyada shevashunoslik va o'zbek shevalarining o'qitilishi	3
2	Turdimov Shomirza Ganiyevich Qo'rg'on dostonchilik maktabi va Ergash Jumanbulbul o'g'lining ijodi	9
3	Шамилова Гюнель Рахман кызы, Структурно-семантические особенности фразеологических единиц с числовым компонентом	12
4	Sobirov Abdulhay Shukurovich, Umidahon Rahmatullayeva, Andijon viloyati etnotoponimlarining areal manzarasi	17
5	Абдиназимов Шамшетдин Нажимович Миллийлигимиз исми-шарипимизден басланады	23
6	Мынбаев Н.Ж., Бобоходжаев Р.Х., К вопросу о классификации тюркских этнических имен	26
7	Murodqosim Abdiyev, S. Rahmonov, Pastdarg'om tumani Chandir shevasiga xos so'zlarning o'zaro munosabatga kirishuvi holatlari	34
8	Baxtiyor Mengliyev "Korpus shevashunosligi" o'quv fani haqida	38
9	Elov Botir,	
10	Zulxumor Xolmanova,	
11	Samixon Ashirboyev O'zbek shevalari normasi xususida	43

1-SHO'BA. SHEVALAR VA FOLKLORNING ILMIY MUAMMOLARI XORIJLIK OLIMLAR NAZDIDA

1	Bahşiyeva Tunzala Latif kızı, Ermenistan'daki türk kökenli yer adları	47
2	Quliyeva Zülfiyyə Boris qızı, Azərbaycan yazıçılarının bədii əsərlərində toponimlərin üslubi xüsusiyyətləri (Cəlil Məmmədquluzadənin bədii nəsri nümunəsində)	52
3	Абдусамад Эрмухаммедов, Мўминжон Турдибеков, Тожикистонда ўзбек шеваларини ўрганилиши	56
4	Boirjon Sheronov, Ixtiyor Ermatov, To'ra Sulaymon ijodida dialektizmlar	60
5	Adilbekova Elmira Seytimovna, Berikkyzy Saya, Turk dastanlarinda kahraman kultu	64
6	Асадова Фатма Агаси кызы, Обогащение Азербайджанского языка словами из современного турецкого языка	68
7	Hüseynova Elnurə Elçin qızı,	74

	Nazimova Himmatoy Xalq og‘zaki ijodida dev va yalmog‘iz kampir obrazlari semantik tahlili	
9	Jo‘rayeva Saodat Ulug‘bek qizi O‘zbek bolalar folklorida mavsumiy marosim qo‘shiqlari	395
10	Mo‘minova Moxitabon Bahodir qizi Turkiy xalqlar folklorida bo‘ri obrazi	398
11	Norboboyeva Maftuna Abdusalom qizi Beruniy ilmiy merosida xalq og‘zaki ijodi va adabiyotning o‘rni	400
12	Shohruh Tursunmurodov Uralovich Bir olqish etnogenezi	403
13	Rahmatova Mohinabonu Rajabovna “Alpomish” dostoni Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li talqinida	406
14	Isaqova Ellora Madamin qizi “Layli va Majnun” dostoni: an‘anaviy syujet va o‘ziga xoslik	409
15	Xidirova Farangiz Rustam qizi “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining o‘rganilishi	414

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1	Abdumurod Tilavov Falakdan yashinday yengan bedovsan... (Mif va epos munosabatiga oid ayrim qaydlar)	418
2	Madraximova Nazira Yaqubovna “Shirin bilan Shakar” dostonining genezisiga doir mulohazalar	422
3	Yulduz Nurjanova, Saparboyeva Sojida Abdulla Qahhor asarlarida xalq maqollarining qo‘llanilishi	426
4	Usmonova Sofiyaxon Alimovna, Sotiboldiyev Dilhayot Qobuljon o‘g‘li Oq ilon timsolining badiiy asarlarda qo‘llanilishi	428
5	Ashurova Parvina Nurbobo qizi Xx asr she‘riyatida folklorizmning tutgan o‘rni	435
6	Azamat Xayrullayev Hikoyada xarakter va portret uyg‘unligi	441
7	Mamadaliyeva Mamlakat Qaxramon qizi Omonilla Madayev ijodiy merosida topishmoqlarning adabiy-estetik talqini	445
8	Kuralbaeva Gulchexra Yusip qizi Qaraqalpaq xalq qaharmanliq erteklerinde siyqirli zatlardın qollanılıw ózgesheligi	448
9	Musayeva Mohiraxon Shoxobiddin qizi Hikmatnavislik an‘anasi va tatar adabiyoti	452
10	Feruza Shomirzayevna Durdonalar jarangini eshitgan qalb	454
11	Achilova Zuxra Qurbonovna “Malla savdogar” dostoni va “Chol va dengiz” qissasi timsollari orqali inson “umid”ini qiyosiy tasviri	457
12	Jiemuratova Feruza Erejepovna Qaraqalpaq xalq dástanlarında naqıl-maqallardın tutqan ornı (Er ziywar dástani misalında)	462
13	Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi	465

HIKOYADA XARAKTER VA PORTRET UYG'UNLIGI THE HARMONY BETWEEN CHARACTER AND PORTRAIT IN A STORY

Azamat Xayrullayev,
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi

Annotation. *The article analyzes the stories of the writer Normurod Norqobilov. It discusses the uniqueness of character creation in the story genre. The character of the hero is analyzed through a portrait. It also discusses the poetic features of the portrait according to the requirements of the genre.*

Key words. *story, genre, artistry, image, character, personage, portrait, episode.*

Istilohiy jihatdan hikoya deb atalmish janrning o'zagi, asos-ustuni bu xarakter hisoblanadi. Xarakterni yuzaga chiqarivchi vosita esa portretdir. Xarakter janrning o'zagi, portret esa xarakterni gavdalantirishda muhim ahamiyatga ega. Hikoyada xarakter yaratish xususida Osha shunday yozadi, "Hikoya yozish seni aqldan ozdiray deydi, chunki shuncha personaj sening mehmoning ularning har birida o'ziga yarasha fe'l-atvor bor. Ular yozuvchiga doim ham quloq solavermaydi. Ba'zida birontasining o'z fikri bo'ladi, u yozuvchini ham shu yo'ldan yurishga majbur qiladi... Hikoya yozganda shunday bo'ladi: bir personajni avliyo qilmoqchi bo'lasan, lekin u osiy bo'lib chiqadi [Jahon adabiyoti jurnali, 2022;142]."

Y.Solijonov hikoya janri talablaridan kelib chiqib, xarakter yaratish haqida quyidagilarni yozadi. "...hikoyada bayon qilingan voqelik xarakter orqali rivojlanadi. To'g'rirog'i, asar syujetini xarakter harakatga keltiradi. Shuni hisobga olgan holda hikoya janrining quyidagi uchta asosiy shartini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: 1. Hikoya syujetiga xarakter asos bo'lishi kerak; 2. Unda bayon qilinayotgan voqelik xarakter orqali jonli va tasirchan ifoda etilishi shart; 3. Asarda syujet, xarakter, voqea birligini taminlash yozuvchining badiiy tasvirlash mahoratiga bog'liq. Voqelikning xarakter atrofiga jipslashtirilishi, uning izchil va muntazam rivojlanishi, xarakter bilan voqelikning o'zaro birligi hamda mutanosibligini saqlay bilish ana shu mahoratning qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi muhim mezonlar hisoblanadi [Solijonov 2020;13]."

Har bir adib o'z asarida turli yo'llar orqali portret yaratadi. Yaratilgan portret esa o'zida muayyan yukni tashishi kerak. Bu yuk personaj xarakteriga va asarning go'yasi xos bo'lmog'i zarur. Yaratilgan portret asar g'oyasini ochib berishga xizmat qilishi kerak.

Umuman har qanday portret asarning badiiy konsepsiyasini ifoda qilmog'i shart. Portretni o'quvchiga personajlar qiyofasi haqida tasavvur berish bilan birga, asar kompozitsiyasi va xarakterlar mohiyatini anglashda ahamiyati katta.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda portretning nisbatan an'anaviy usuli qo'llanilgan. Bu usulni shartli ravishda kontrast usul deb olsak mubolag'a qilmaymiz. Yani go'zallik ziddi hunuklik bilan kontrast munosabatga kirishadi. Bunda ijobiy qahramon qiyofasi go'zal, salbiy qahramon qiyofasi esa hunuk qilib tasvirlanadi. Buning o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-madaniy, etnik sabablari, xalqning muayyan ishonch-etiqodlari bilan bog'liq jihatlari bor.

Xarakter va portret yaratish haqida so'z borar ekan bir misolni keltirishni o'rinli deb topdik. "Uch yuz oltmish mastonning boshlig'ini Momogul maston der edi. Mazgili shahardan tashqaridagi bir g'orda edi. G'orda yotar edi, xurakni baland otar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi, yurush turishi odamlarga xatar edi, ne-ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo'lsa-izlab topar edi, qanday odam bo'lsa shu kampirdan hazar qilib uzoqqa qochar edi, yomonlikni izlab kelgan odamning ishi shu mastondan bitar edi... Ular momoning apti, jasadini ko'rdi, shunday: manglaylari cho'tday, ko'zlari o'tday, jag'ining go'shti

qochgan, yon yog'idan tarlon ochgan, yaxshilikdan mudom qochgan [Rustamxon dostini 1942;9-10].” “Rustamxon” dostonidan keltirilgan yuqoridagi parchada xarakter va portretning klassik uyg'unligini ko'ramiz. Umuman xalq og'zaki ijodida qahramonlarning tarifi, yorning xusni-jamolinig ta'rif-tavsifi, shuningdek salbiy tipdagi personajlarning portreti universal darajada tavsirlanadi. Bunday unversallik darajasiga yetishish esa kamdam-kam genial ijodkorlarga nasib etadi. Boshqa bir ijodkorlar esa xalq og'zaki ijodiga yoki genilarga taqlid va ergashish yo'ldan boradi. (Bunday holat yozuvchilarda ko'pincha ijodga kirib kelgan davrda kuzatiladi.) Provvardida esa badiiy asar persanajlari qiyofasi, xakteri badiiylikdan yiroqlab, soxta bir ko'rinishga ega bo'ladi. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida ba'zan salbiy obrazni asarga kirib kelishi bilanoq uning qiyofasi, xakterini batafsil yoritish ana'nasi kuzatiladi. Xususan, “Alpomish” dostonida Yortiboy yoki yuqorida keltirilgan “Rustamxon”da Momogul maston va boshqalarni misol qilish mumkin.

A.Qahhor ijodini o'rgangan olima M.Sultonova shunday yozadi. “Abdulla Qahhor ijodining dastlabki yillarida va hatto qalami hiyla o'tkirlashib qolgan davrda yozgan ba'zi bir asarlarida ham portret tasviridan asar g'oyasini ochishda yozuvchining to'la foydalana olmaganligi seziladi.

A.Qahhor salbiy tiplarni hunuk qilib tasvirlashga harakat qiladi. **Natijada hunuklik yomonlikning birinchi shartidek bo'lib qoladi.** Bu yo'lda me'yorning buzulishi esa o'quvchining g'ashiga tegadi. Qiyofasi hunuk qilib tasvirlangan qahramon asarda paydo bo'lishi bilanoq kitobxon uning qanday odam ekanligini bilib oladi, unga bo'lgan qiziqishi ma'lum darajada susayadi [Sultonova 1969;79].”

Bu o'rinda masala salbiy tipning hunuk yoki go'zal qiyofada chizilishida emas balki me'yor masalasida. Yozuvchi dor ustidagi darboz kabi langar cho'pni to'g'ri tutmog'i, tasvirda “oltin o'rtaliq”ni topa bilmog'i zarur. U bir tomondan ijobiy qahramonlarini go'zallikka “burkash”ga, ikkinchi tomondan salbiy qahramonlarni “loyga qormoq”dan o'zi tiya bilmog'i va uchinchi tomondan esa ikki tomonni ham asar konsepsiyasi “pishiq”ligi uchun yo'naltira bilishi lozim.

Hikoya janri o'z tabiatiga ko'ra inson hayotidan bir voqeani, epizodni badiiy aks ettiradi. Normurod Norqobilovning ijodining dastlabki yillarida yozilgan “Do'stlar” hikoyasida ham ikki do'st hayotida sodir bo'lgan bir voqea ifoda etiladi. Asar personajlari Berdi va Salom bolalikdan do'st tutinishgan. “O'sha oqshom ikki bola qishloq oqsoqolining aytganlarini so'zma-so'z takrorlab, bir umrga do'st bo'lishga qasamyod qildilar [Norqobilov 1990;8].”

Keyinchalik Berdi podachilik, Salom shafyorlik bilan tirikchilik qiladi. Salom dashtda yurgan do'sti Berdini oldiga tiz-tez borib turar edi. Berdi tabiatsivar, Salom esa ovchilikka qiziqadi. Bir kuni ular jarlik labidagi tulki iniga tushub tulkini olib chiqmoqchi bo'lishadi. Biroq Salom tasodifan arqonni qo'yib yuboradi. Hikoyada Salom xakterini ochib berivchi uch muhim epizod mavjud.

Birinchi epizod, stabil holat. Ularning bolalikdan do'stligi.

Ikkinchi epizod, kutulmagan vaziyatni sodir bo'lishi. Berdi jarga qulab tushgandan so'ng Salomning ruhiy holati tasviri. “Berdi bo'z tuproq ustida tosh qotib yotardi. Salom borasolib uning boshini ko'tardi, jon asari sezilmadi. Qo'rquvdan Salomning tizzalari qaltirab o'tirib qoldi. Ko'z o'ngida bundan keyin bo'ladigan voqealar gavdalandi: birinchi bo'lib hassasini to'qillatgancha Berdining otasi Rayim chol yetib keladi, keyin xotini, og'a-inilari... Endi bir umr uning boshi ta'nayu malomatdan chiqmaydi. Hammasidan yomoni Shodi milisa... u oyog'ini yerga tekkizmay milisaxonaga olib ketadi. Aybdor emasligini isbotlab ko'rsin-chi... Shularni o'ylab Salom piqillab yig'lab yubordi. Qeyin birdan hushyor tortib atrofga olazarak nazar tashladi. Ko'ziga biror tirik jon chalinmagach, sakrab o'rnidan turdi-da, do'stining jonsiz yuziga ilkis nigoh tashlab, tepaga shamolday yelib chiqdi. Yerda yotgan miltiq va paxtaligini qo'liga olib, jar ichi bilan qishloq sari jadal yurib ketdi [Norqobilov 1990;8].”

Uchinchi epizod, qayta ko'rganda. Kechki payt poda qaytganda Berdini tirik ko'rgan Salomning holati. "Oxiri chidayolmadi. Oqshomga yaqin qishloq yonidagi tepalikka chiqib, Kattatepa tomonga ko'z tashladi. Ko'z tashladn-yu, hayratdan qotib qoldi. Berdi eshakda, dala yo'lidan podani haydab kelayotgan edi. Salom o'zida yo'q quvonib pastga otiladi. Biroz yurgach, a'zoyu badani bo'shashib to'xtadi. U butunlay boshqa Berdi ekanligini, endi do'stidan ayrilganini butun vujudi bilan his etib, peshonasinn muzday ter bosdi [Norqobilov 1990;8]." Hikoya semantikkasidan xalqning "Do'st kulfatda sinalar" maqoli anglashilib turadi. Asarda Salom tabiatidagi qurqoqlik, do'stlikka hiyonat mohirona ochib beriladi. Ushbu hikoya syujetiga diqqat qiladigan bo'lsak u hikoya janri tabiatiga mos ravishda voqeadan voqeaga o'tib emas balki, bir epizoddan ikkinchi epizodga o'tib rivojlanib boradi. Uch bosqich aniq aytganda uch epizod orqali qahramonning xarakteri bilan birga portreti ham ochib beriladi. Biroq asosiy urg'u baribir bu yerda portretga tushmoqda. Chunki, Salom portreti dinamik ravishda o'sib borib yozuvchining uslubiy va badiiy mahoratini ko'rsatib beradi.

"Hayotda har bir odamning tili, so'zlash tarzi uning qanday turmush kechirganligi, ma'daniyati ongi, ruhiyati haqida malum tasavvur beradi. Shunga ko'ra badiiy asardagi qahramonlarning nutqlari, so'zlash tarzleri ham turli tuman, o'ziga xos bo'lib, ular xarakterining mohiyatini anglashda muayyan vazifani o'taydi [Xudoyberdiev 1995;70]." Xarakter yaratishda, unga xos belgi va xususiyatlarni chizishda badiiy nutq shakllarining o'zni katta. Albatta, bu janr bilan, adabiy tur bilan ma'lum ma'noda bog'liqdir. Chunki, qissa yoki roman, aytaylik dramatik turda bo'lganidek hikoyaga monolog, ichki ovoz kabi nutq shakllarini salmog'i tushmaydi. Yozuvchi hikoya janri imkoniyatlaridan kelib chiqib badiiy nutqning asosan dialog va monolog, ichki ovoz kabi shakllaridan o'zni bilan foydalanadi. N.Norqobilovning "Olim og'il" hikoyasi bugungi kun odamlarining dardlari, iztiroblari, muammolari tasvirlangan, zamon ruhi aks etgan asarlaridan biri. Yozuvchining "O'g'ri", "Yo'lda", "Pivaxonada", "Parvoz" hikoyalarini ham shu qatarda sanash mumkin.

Portret badiiy tasvirning eng muhim vositalaridan biri sifatida N.Norqobilov hikoyalarida katta ahamiyatga ega. U adib hikoyalarida qahramon ruhiyati puchmoqlarini ochishda muhim rol o'ynaydi. "Badiiy asarda portretning vazifalari turlicha bo'ladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri, uning ko'proq psixologik portret bo'lishidadir [Shodiev 1977;27]". Psixologik portret N.Norqobilov hikoyalarida qahramonlarning ruhiy olamini ochishda katta o'ringa ega. Yozuvchi hikoyalarida qahramonlarning ko'rinishini ba'zan batafsil chizsa, ba'zan janr talabidan kelib chiqib o'zni-o'zni bilan ular qiyofasiga chizgilar beradi. Personaj asarga kirib kelishi bilan chizilgan portret to'liq bo'lmagani holda muallif hikoya davomida qayta yana uning qiyofasini tashqi-ichki tomonlarini chizishi mumkin.

"Judolik quvonchi" hikoyasida portret bilan uyg'unlashib ketgan to'rt xil xarakter bor. Ushbu xarakterlarning har bir o'ziga xos. Bular

- a) bola,
- b) chol,
- v) Yomonqul, Bozorqul, cholning qizi va cholning janazasiga yig'ilgan butun qishloq,
- d) Musoning xarakterlari.

Bola o'z o'y-xayollari bilan o'ziga xos xarakter kasb e'tadi. O'ziga xosligi aynan bolalarcha ayriliqdan quvonch ko'rishi bilan ko'zga tashlanadi. Cholning portreti atrofdagi detalalar bilan uyg'un tasvirlanadi. Tepalikka chiqib o'g'lini kutishi, qotgan non yeyishi, o'limidan so'ng esa chumolilarning nonni olib ketishi.

"Cholning esa bu xil past-baland gaplar bilan ishi yo'q. Kunning tafti sal pasayishi bilan hassasini do'qillatib, qishloq biqinidagi do'nglikka chiqib keladi. Yerga cho'kib, og'ir uh tortarkan, o'zicha g'udranib qo'yadi: «Voy jonimi-iy, tozayam siqilib ketdim-a uйда». So'ng hassasini tizzalari orasiga olib, oshiqmay qo'yniga qo'l yuboradi. Timirskilanib, cho'ntagidan nimadir qidiradi. Chetdan kuzatgan odamga nosqovog'ini izlayotganday tuyulishi mumkin. Yo'q,

cholning qo‘lida nosqovoq emas, hamisha suvi qochgan bir bo‘lak non bo‘ladi. U nonni og‘ziga olib borishdan avval obdon o‘ngu tersiga razm soladi, puf-puflab gardu gurddan tozalagan bo‘ladi, so‘ng tishsiz milklari orasiga olib, ko‘zlarini yarim yumgancha, tamshanib-tamshanib shimishga tushadi. Namlangan non uvoqlarini yamlamay yutadi [Norqobilov 148].” Mana shu detallar yordamida yozuvchi cholning portretini chizadi.

Umuman adib xarakter yaratishning o‘ziga xos yo‘lidan boradi. Portret yordamida esa yozuvchi qahramonlarining qaysi ijtimoiy muhitga daxldorligidan tortib, ma’naviy qiyofasigacha batafsil ko‘rsatadi. Personaj qiyofasini chizar ekan uning dunyoqarashini, ichki ziddiyatini ochib beradi. Xarakterning boshqalar bilan konfliktini ko‘rsatish, ichki kechinmalarini, qo‘rquvini, nafratini ko‘rsatish uchun portretdan mohirona foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Rustamxon” dostini Fozil Yo‘ldosh og‘li. O‘zFan Toshkent. 1942.
2. Jahon adabiyoti jurnali 2022- yil, 9-son.
3. Solijonov Y. Adabiyot xiyoboni. T.:2020.
4. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi 1969.
5. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: O‘qituvchi,1995.
6. Norqobilov N. Tanlangan asarlar. I jild. 2022.